

## Qo'l jangida baland kelgan qo'llar

Armrestling – ikki ishtirokchi o'rtasida bo'ladigan qo'l jangi turlaridan biri. "Yoshlar haftaligi" doirasida sportning bu turi bo'yicha 5 ta vazn toifasida musobaqalar tashkil etildi. Natijalar bilan tanishamiz.

### 90 - kg vazn toifasida

"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti talabasi Tog'aynazarov Abdumalik **3-o'ringa**, Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti talabasi Kerimqulov Meribek **2-o'ringa**, "Gidromelioratsiya" fakulteti talabasi Pirmatov Xislat **1-o'ringa** loyiq ko'rildi.

### 80 - 90 kg vazn toifasida

**3-o'rinni** "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti talabasi Mamatov Mashrab, **2-o'rinni** "Gidromelioratsiya" fakulteti talabasi Nurmamatov Sirojiddin **1-o'rinni** "Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" fakulteti talabasi Akbaraliyev Azim egalladi.

### 70 - 80 kg vazn toifasida

**3-o'rin** "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti talabasi Sotvoldiyev Xayitboyga, **2-o'rin** "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti talabasi Aliyarov Jamshidga, **1-o'rin** "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti talabasi Sayfiyev Mirxomidga musharraf bo'ldi.

### 60 - 70 kg vazn toifasida

**3-o'rinni** "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti talabasi Amirov Muhridin, **2-o'rinni** "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti talabasi Xakimov Islom, **1-o'rinni** "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti talabasi Amadjonov Muzrob ishg'ol etdi.

### 50 - 60 kg vazn toifasida

**3-o'rinni** "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti talabasi M. Egamberdiyev, **2-o'rinni** "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti talabasi Tolibov Avazmat, **1-o'rinni** esa "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti talabasi Avalboyev Sanjar egalladi.

G'olib bo'lgan talabalar "Yoshlar haftaligi" taqdirlash marosimida institut rahbariyati va Yoshlar ittifoqi hamda institut kasaba uyushmasi tomonidan esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishdi.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov